

возможностям трудоустройства в будущем и к более низкому общему объему дохода на протяжении жизни.

Финансовое образование может помочь таким гражданам в вопросах участия в экономической и финансовой жизни, уберечь их от мошенничества, а также помочь им начать приобретать полезные финансовые привычки, такие как сбережение средств и планирование бюджета.

#### **Список литературы:**

1. ОЭСР (2018), Политико-экономическое руководство по финансовому образованию для молодежи в странах Содружества Независимых Государств;
2. Спецпроект «Финансовая грамотность россиян 2023»/ Аналитический центр НАФИ;
3. Салмин Р.Я., Николаев Г.Г. Финансовая грамотность молодежи как качественный показатель современного молодого человека/ Дискуссионная площадка «Социальная и профессиональная активность молодежи», 2022г.
4. Федеральная служба государственной статистики (Росстат): <http://www.gks.ru/>
5. Агентство по статистике Республики Узбекистан: <https://stat.uz/>
6. Комитет по статистике Республики Казахстан: <https://stat.gov.kz/>
7. Государственный комитет по статистике Азербайджанской Республики: <https://www.stat.gov.az/>
8. Национальная статистическая служба Республики Армения: <https://www.armstat.am/>
9. Государственный комитет по статистике Республики Таджикистан: <http://www.stat.tj/>
10. Национальный статистический комитет Кыргызской Республики: <http://stat.kg/>
11. Статистическая служба Евросоюза: Eurostat, 2016 .

## **QISHLOQ XO‘JALIGIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH**

**Inobatov Abror**

*Renessans ta’lim universiteti*

*“Iqtisodiyot” kafedrası i.f.f.d., (PhD) dotsent*

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchil davom etmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, “... respublika bo‘yicha 11 mingga yaqin, ya’ni 90 foiz fermer xo‘jaliklari ko‘p tarmoqli xo‘jaliklarga aylantirildi. Buning natijasida qariyb 37 ming aholi ish bilan ta’minlandi. Bundan tashqari, mamlakatimizda 97 ta paxta-to‘qimachilik, 149 ta meva-sabzavotchilik, 65 ta g‘allachilik, 35 ta sholichilik va 7 ta dorivor o‘simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar va 11 ta paxta-to‘qimachilik kooperatsiyalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, qoramolchilik yo‘nalishida 34 ta, parrandachilik bo‘yicha 10 ta, baliqchilik tarmog‘ida 36 ta, asalarichilik yo‘nalishida 15 ta fermer xo‘jaligida klaster usulida mahsulot yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Shu maqsadda fermer va dehqonlar daromadini 2 barobar ko‘paytirish uchun zarur sharoitlarni

yaratamiz, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sish sur‘atini kamida 5 foizga yetkazamiz”<sup>100</sup>. Ushbu ijobiy o‘zgarishlar bilan birga yechimini kutayotgan muammolarni hal qilishda iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Grek yong‘og‘i ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahsulotning bozorgirlik xususiyatlarini yaxshilash, yong‘oq ishlab chiqarish jarayoniga investitsiyalar jalb etish, dunyoda grek yong‘og‘i yetishtirish xususiyatlari va ulardan foydalanish hozirgi kunning eng muxim vazifalaridan hisoblanadi. Grek yong‘og‘i yetishtirishni rivojlantirish borasida so‘nggi yillarda respublikada qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar ijrosini ta‘minlash, mavjud muammolar yechimlari yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish, ularni joriy qilib borish talab etilmoqda. Ayni paytda grek yong‘og‘i yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, tashkiliy muammolarini hal etish bo‘yicha respublikada ilmiy tadqiqotlar endigina boshlandi. Ta‘kidlash lozimki, yong‘oqzorlarni tashkil qilishda (yong‘oq ekishda) bugungi kunda oilaning ehtiyojini emas, balki bozor talabini e‘tiborga olib ishini tashkil qilish lozim. Bu holda yong‘oqlar oilaning ehtiyoji uchun foydalanilsa ham, bozorga olib chiqilsa ham zarar qilinmaydi. Yaxshi parvarishlash natijasida grek yong‘og‘i hosildorligi ortib, gektaridan 2,5 tonnagacha (yong‘oq mag‘zi) hosil yig‘ib olish mumkin. Odatda, jahon amaliyotida yong‘oq hosildorligi yong‘oqning tozalangan mag‘zi bilan o‘lchanadi. Chunki grek yong‘og‘i turlicha shaklga, po‘choq qalinligiga egaligi tufayli, tozalanmagan yong‘oq hosildorligi asosida yong‘oq yetishtirish samaradorligiga iqtisodiy jihatdan baho berish qiyin. Masalan, yovvoyi grek yong‘og‘idan o‘rtacha mag‘iz chiqishi salmog‘i 30–35 foizni tashkil qilsa, bu ko‘rsatkich navdor yong‘oqlarda 45–55 foizgacha yetib borishi mumkin.

Respublikada qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi diversifikatsiyasi bugungi kunda mamlakat aholini oziq-ovqat bilan barqaror ta‘minlash va shuningdek, agrar tarmoqning eksport salohiyatini oshirishga qaratilmoqda. Shu o‘rinda, lalmi dehqonchilik hududlarida yerdan foydalanishni rag‘batlantirish orqali samaradorlikni oshirish, bozorlarga sifatli va raqobatdosh grek yong‘og‘ini taklif qilish hajmini ko‘paytirish, sohani rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish hisobiga intensiv zamonaviy yong‘oq plantatsiyalarini barpo etish ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, yong‘oqchilikda ilmiy zamonaviy texnologiyalar va intensiv usullarni keng joriy etish maqsadini ko‘zda tutadi. Bunda 2017-yil 1-iyunda qabul qilingan Respublika Prezidentining PQ-3025-sonli “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu qaror asosida serhosil yong‘oq plantatsiyalarini yaratish, yong‘oq eksporti hajmini kengaytirish, yong‘oq yetishtiruvchilar malakasini oshirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish tadbirlarini amalga oshiruvchi respublikada “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi” tashkil etildi. Uyushma tarkibida

---

<sup>100</sup> O‘zbekiston Pecpyblikaci Ppezidenti Sh.M.Mipziyoevning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlapiga yo‘llagan tabrik nytqidan. 2020-yil 12 dekabr. <https://review.uz/oz/post/shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-qishloq-xojaligi-xodimlariga-tabrik-yolladi>.

mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida Yong'ochilik ilmiy-tadqiqot markazi, Yong'och logistika markazi, "Sag agro MTP" MCHJ, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan va Toshkent viloyatlarida hududiy "Yong'ochagro" MCHJ faoliyat olib bormoqda.

Odatda, grek yong'og'ni bozorga pochog'idan tozalangan va tozalanmagan holda taklif qilishadi. Respublikamizda bunday statistik ko'rsatkichlar mavjud emas, ammo jahon bozori ko'rsatkichlaridan foydalangan holda xulosa qiladigan bo'lsak, taxminan jami sotilayotgan grek yong'og'ining deyarli 64 foizi pochog'idan tozalangan holda bazorga taklif qilinadi. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilda dunyoda import qilinayotgan va eksport qilinayotgan grek yong'og'i bo'yicha ham deyarli farq qilmaydi (1-jadval).

**1-jadval**

**Dunyo bozorida pochog'idan tozalangan va tozalanmagan holda sotilgan grek yong'og'ining miqdori,<sup>101</sup> (2022-yil, ming AQSH dollarida)**

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<b>Eksport qilingan</b>	<b>Import qilingan</b>
<i>Pochog'idan tozalangan yong'och</i>	1997303	1769152
<i>Salmog'i, (%)</i>	64,3	65,5
<i>Pochog'i tozalanmagan yong'och</i>	1107023	932858
<i>Salmog'i, (%)</i>	35,7	34,5
<i>Jami</i>	<b>3104326</b>	<b>2702010</b>

Pochog'i tozalangan va tozalanmagan grek yong'og'iga bozor talabining o'zgarishi mutaxassislar fikricha, qachonki iste'molchilar yong'och bozorini juda yaxshi tushungan paytdan boshlab yuz berishini ta'kidlashadi. Chunki pochog'i tozlangandan so'ng grek yong'og'ini saqlash muddatlari deyarli 5–6-martaga qisqarishi bilan birga, sanitariya jihatidan kafolatlanganlik darajasi ham keskin pasayishi yuz berishi, tadbirkor uchun iqtisodiy zarar keltirishi mumkin bo'lgan omil hisoblanadi. Har bir holatda ham mahsulot bahosi o'zgaradi. Chunki yong'och mag'zining chiqish salmog'i ham turli navdagi va navdorlikka ega bo'lmagan yong'ochlarda ham turlicha ko'rsatkichlarga ega.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlarimiz natijasida yong'ochzorlar maydoni va gektarni o'rganib shunday hulosaga keldik Respublikamizdagi plantatsiyalar endigina o'z natijalarini bermoqda ayniqsa, Dehqon xo'jaligi va aholi xonadonlarida grek yong'og'i yetishtirish iqtisodiy jihatdan yuqori foyda keltiruvchi biznes bo'lib, quyidagi muhim iqtisodiy hususiyatlarga ega:

- birinchidan, grek yong'og'i ishlab chiqarish dehqon xo'jaliklaridan katta miqdordagi dastlabki investitsiya mablag'larini talab qilmaydi;

- ikkinchidan, grek yong'og'i niholi ob-havoning stress holatlariga bardoshli bo'lib, nihollarni parvarishlash, hasharotlardan himoyalash bilan bog'liq katta miqdordagi sarf-xarajatlarni talab etmaydi;

<sup>101</sup> <http://nutguide.ru/vidy/greckie/ochishhennogo-oreha> ma'lumoti asosida tuzilgan.

- uchinchidan, dehqon xo‘jaliklari yuqori daromadli biznesga ega bo‘lishi bilan birga, kelajakda bir necha avlodlari uchun, kafolatli qaytim beruvchi daromadli iqtisodiy faoliyat poydevori yaratgan hisoblanadi;
- to‘rtinchidan, yong‘oqzorlarni parvarishlash soddaligi, murakkab mehnatni talab qilmasligi, uzoq umr ko‘rishi (250–350-yil) sarf qilingan investitsiyalarning uzoq yillar davomida qaytim berishini ta‘minlaydi;
- beshinchidan, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari kabi yig‘ib olingandan keyin sifati buzilishi, tovarlilik xususiyatlarini yo‘qotishi, hosilni transportda tashishdagi nobdugarchiliklar deyarli sezilmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3025-sonli qarori. -2017-y. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)*

*Boshlarovich, I.A. (2024). Opportunities for the development of the walnut market within the framework of farm activities. Science and Innovation, 3(4), 37-44.*

*Inobatov, A. (2024). Xususiy sektordagi tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(3), 24-30.*

*Inobatov, A. (2024). Dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilgan grek yong‘og‘ini iste‘molchilarga yetkazib berish yo‘llari.*

*Inobatov, A., & Ziyadullaev, I. (2023). Improving the methodology for predicting the yield of walnuts in farms based on econometric models. In E3S Web of Conferences (Vol. 376, p. 02001). EDP Sciences.*

*Inobatov, A. (2021). O‘zbekistonda yetishtirilayotgan grek yong‘og‘ini dunyo bozorlariga eksport qilishda raqobatbop navlardan foydalanish. science and innovative development, 4(3), 73-83.*

*Inobatov, A. (2022). Dehqon xo‘jaliklarida grek yong‘og‘i yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi. science and innovative development, 5(3), 143-151.*

*Sadullaevich, K.N., & Boshlarovich, A. I. (2021). Resource-saving technologies in the cultivation of walnuts in terms of conomic evaluation methodological approaches. The journal of contemporary issues in business and government, 27(1), 957-968.*

*Инобатов, А.Б. (2022). Деҳқон хўжаликларида грек ёнгоғи етиштиришининг иқтисодий самарадорлиги. Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие, 5(3), 143-151.*

*Инобатов, А.Б. (2021). Ўзбекистонда етиштирилаётган грек ёнгоғини дунё бозорларига экспорт қилишда рақобатбоп навлардан фойдаланиш. Илм-фан ва инновацион ривожланиш/Наука и инновационное развитие, 4(3), 73-83.*

*Boshlarovich, A.I. (2021). Pricing formation and market variability characteristics in walnut cultivation and its delivery to consumers. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(7), 294-301.*

*Inabatov, A. B. (2017). Potential of pomegranate production in syrdarya region. in перспективы развития науки и образования в современных экологических условиях (pp. 827-830).*

*Инобатов, А.Б., & Хамдамов, Ш. (2016). Регулирование инновационного развития сельского хозяйства. in приоритетные направления развития современной науки молодых учёных аграриев (pp. 1068-1070).*

*Инобатов, А.Б. (2016). Зарубежный опыт фермерского хозяйства (на примере фермерства в голландии). In Современные тенденции развития аграрного комплекса (pp. 1521-1523).*